

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**MUXAMETSHINA ELMIRA TALGATOVNA**

**PNEVMOQUVURNING CHIG‘ANOQ QISMIDAGI MATERIALINI,  
GEOMETRIK SHAKLI VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan–2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences**

**Muxametshina Elmira Talgatovna**

Pnevmoquvurning chig'anoq qismidagi materialini, geometrik shakli va parametrlarini asoslash..... 3

**Мухаметшина Эльмира Талгатовна**

Обоснование материала, геометрической формы и параметров отводов пневмотранспорта ..... 25

**Muxametshina Elmira Talgatovna**

Rationale of the material, geometric shape and parameters of pneumatic outlets..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**MUXAMETSHINA ELMIRA TALGATOVNA**

**PNEVMOQUVURNING CHIG‘ANOQ QISMIDAGI MATERIALINI,  
GEOMETRIK SHAKLI VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan– 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T1842 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) (va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muradov Rustam Muradovich**  
Texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarov Nazirjon Muhammadjonovich**  
Texnika fanlari doktori, professor

**Umarov Akmal Akparaliyevich**  
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 2 avgust soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel: (99869) 228-76-71 Faks: (99869) 228-76-75; e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (592-raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel: (99869) 228-76-71 Faks: (99869) 228-76-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 20 iyul kuni tarqatildi.  
(2024 yil 31 maydagi 15-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.M.Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.f.d., dotsent

**Sh.A.Mahsudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, t.f.f.d, dotsent

**N.M.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda paxta tolasiga bo'lgan talab yuqori bo'lganligi uchun uni ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, paxta xomashyosini dastlabki ishlash jarayonida qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Dunyo miqyosida 23-24 mln. tonna atrofida paxta tolasini ishlab chiqariladi, lekin uning yillik iste'moli ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 23,5-25,0 mln tonnani tashkil etmoqda. Yetishmayotgan tolaning hajmi tola xomashyo zaxiralarining hisobiga qoplanib olmoqda"<sup>1</sup>, yetishtirilgan paxtani qayta ishlash texnologiyasida qayta ishlash jarayonini sifatli amalga oshiradigan mashinalarni va pnevmotransport tizimi bo'lgan bo'g'imlarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, jahon miqyosida paxta jahonshumul mahsulot sifatida e'tirof etilgan va uni yetishtirish, terish, tashish, g'aramlash, saqlash va dastlabki ishlov berish texnologik jarayonlarida mahsulot miqdori hamda sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali uning tannaxsini pasaytirish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta tolasini to'qimachilik sanoatining asosiy mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Paxta xomashyosini tabiiy ko'rsatkichlarini saqlagan holda ishlov berish jarayonlariga yetkazib berish hamda resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasida –paxtani ishlab chiqarishga yetkazib berish hamda paxtani qayta ishlashni samarali tashkil qilish, energiya-resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, muammolarni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarni ishlab chiqish, barcha texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mavjud paxta tozalash korxonalarida joylashgan g'aramlardagi paxtani ishlab chiqarish jarayoniga yetkazib berishda dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish hamda energiya sarfini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishga qaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, ularni amalga qo'llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muvaffaqiyatli natijalarga erishilmoqda. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» ko'rsatilgan «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 marotabaga oshirish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta sanoatida paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlarini, xususan, paxtani pnevmotransport tizimida shikast yetkazmasdan tashish jarayoni samaradorligini oshirish, pnevmoquvurlarni germetikligini ta'minlash orqali energiya sarfini kamaytirish, pnevmoquvur

---

<sup>1</sup> Cotton: WorldStatistics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>.

materialini o'ziga xos xossaga ega bo'lgan materialga o'zgartirish va parametrlarini asoslash, pnevmoquvurlarni ishlash muddatini oshirish orqali iqtisodiy natijalarga erishish, yangi konstruksiyadagi avtomatlashgan pnevmoquvur elementlarining parametrlarini asoslash va ilmiy-texnik yechimlarinin ishlab chiqish, pnevmoquvur materialini o'ziga xos xossaga ega bo'lgan materialga o'zgartirish va parametrlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi 2017-yil 28-noyabrdagi PQ-3408-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-sonli «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Pnevmotransport tizimini takomillashtirish va paxtani tashish jarayonidagi qonuniyatlarni ishlab chiqish va tadqiq etish bo'yicha xorijda A.Y.Yampolskiy, V.A.Shvab, M.P.Kalimushkin, V.A.Uspenskiy, N.D.Xomutskiy, K.I.Straxich, A.Y.Smoldiryov, X.I.Xubanov, A.D.Grober va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shuningdek, Respublikamizda paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonidagi paxta xomashyosini pnevmotransport tizimida tashishning fundamental-nazariy, amaliy va metodologik asoslarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar A.Burxanov, R.M.Muradov, O.Sh.Sarimsakov, Z.O.Shodiyev, G.I.Miroshnichenko, B.Levkovich, P.Baydyuk, X.A.Ziyayev, R.Amirov, R.Maxkamov, B.M.Mardonov, X.Raxmatullin, U.X.Azizxodjayev, N.A.Ortikov, S.A.Samandarov, A.A.Ismoilov, T.O.Shamsuddinov, A.Davidov, R.Fayziyev, M.Xojiyev, X.Mamarasulov, R.Burnashev, X.T.Axmedxodjayev, G.Qodirova, A.Abduraxmonov, B.Boltabayev va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Paxtani pnevmotransportda tashish jarayonida pnevmotransport tizimining tarkibiy bo'g'ini hisoblangan chig'anoq qismlarini takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramasdan, paxta xomashyosini havo oqimida tashishni samaradorligini ta'minlash uchun pnevmoquvur va uning germetikligini ta'minlash hamda paxta bilan quvurning ishqalanishi bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida Namangan muhandislik-texnologiya institutida hamda Jizzax politexnika institutida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar rejasi bilan o'zaro uzviy bog'langan hamda O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida amaliy tadqiqotlar davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonida pnevmoquvurning chig'anoq qismidagi materialini, geometrik shakli va parametrlarini asoslash orqali chigit hamda tola shikastlanishini oldini oluvchi va paxta tolasini tabiiy sifat ko'rsatkichini ta'minlash ishning maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

pnevmoquvur chig'anoq qismlarining shaklini tanlash hamda tashiladigan xomashyoning sifatiga ta'sirini nazariy va tajribaviy tadqiq qilish;

pnevmoquvurning burilish joylaridagi chig'anoq ishchi yuzalariga polietilen materiallarni qo'llash imkoniyatini aniqlash va ularning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish;

pnevmotransport qurilmasining eksperimental konstruksiyasini yaratish va uning samarali ishlashini asoslash;

taklif etilayotgan pnevmotransport qurilmasida ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish hamda uni paxta xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;

qabul qilingan texnikaviy yechimlar samaradorligini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiya qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida pnevmotransport tizimining bo'g'ini, konstruktiv elementi hisoblangan pnevmoquvur chig'anog'i olingan.

**Tadqiqotning predmeti** paxta xomashyosi hamda uni pnevmotransportda tashish jarayonini tadqiq qilishning mavjud usullari va vositalari tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari** tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy va amaliy mexanika, aerodinamika, eksperimental tadqiqotlar, matematik statistika, zamonaviy o'lchash usul va vositalari, tajribalarni rejalashtirish va optimallashtirish kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

pnevmotransport quvurlarining burilish qismlarida paxta bo'lakchalarining harakatlanish trayektoriyasini aniqlash differensial tenglamalar olishda vaqtga, quvurning diametriga va egri qismlarning radiusiga bog'liqligini ifodalovchi matematik modellar ishlab chiqilgan;

shikastlanganligini aniqlash maqsadida chigitning urilish joyidagi zarba kuchini aniqlovchi tenzodatchiklar o'rnatilgan, ma'lum bir oraliq masofaga fotodatchiklar o'rnatilgan, harakat tezligini aniqlash imkonini bergan takomillashtirilgan laboratoriya qurilmasi ishlab chiqilgan;

paxtani tashuvchi qurilmaning chig'anoq qismi polimer va erukamid qorishmasidan tayyorlangan materiallardan yasali, unda chigit shikastlanishi amaliy tajribalarda aniqlangan;

to'liq omilli tajribalar asosida paxtani quvurda tashish jarayonida shikastlanishni kamaytiruvchi omillarning parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi regression matematik model olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nazariy, amaliy va tajribaviy ilmiy izlanishlar natijasida pnevmotransport tizimida harakatlanayotgan paxta xomashyosining shikastlanishini aniqlaydigan laboratoriya qurilmasining tajriba nusxasi ishlab chiqilgan;

pnevmoquvur chig'anoq konstruksiyasining shakli va materialining chigit shikastlanishiga ta'siri o'rganildi hamda uning materiali bilan geometrik shakli o'zgartirilgan;

yangi ishlab chiqilgan tajriba qurilmasi yordamida pnevmoquvurning burilish qismlarida paxta chigitiga ta'sir qiluvchi zarba kuchi aniqlanib, zarbani kamaytiruvchi va mustahkamlikka ega optimal material tanlangan;

pnevmotransport tizimiga polietilen materialdan tayyorlangan chig'anoq konstruksiyalarni o'rnatilishi natijasida paxta chigitiga ta'sir etuvchi zarba kuchini kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishida shakllantirilgan ilmiy holatlar, tamoyillar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarga, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiylikiga, shuningdek, natijalarni solishtirish, davlat standart talablari, baholash mezonlari va ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlari bilan qiyosiy tahliliga ko'ra asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani tashish jarayonida chigit shikastlanishini va tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlash hamda pnevmotransport tizimi qurilmasining mexanik ta'sirdan himoya qilish orqali paxtaning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlanishini ta'minlovchi pnevmoquvur chig'anog'ining materialiga va geometrik shakliga o'zgartirishlar kiritib, ilmiy asoslangan polietilen quvur yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta xomashyosi havo tezligida borib urilishda zarba kuchini aniqlaydigan laboratoriya qurilmasi yaratilganligi, burilish qismlarda eng ko'p shikastlanish sodir bo'lganligi, va aynan shu burilish qismlarning materialini polietilen materialga almashtirish natijasida zarba kuchi kamayib, shikastlanish kamayganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Paxta havo yordamida tashish jarayonidagi pnevmoquvur konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan konstruktsiya asosida yaratilgan yangi pnevmoquvur chig'anog'i «Namangan to'qimachi» MChJ ga qarashli «To'raqo'rg'on paxta tozalash» korxonasida ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilgan. («O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» uyushmasining 2024 yil 13 martdagi 04/22-121-son ma'lumotnomasi Natijada paxta chigitining shikastlanishi 3,2 % dan 2,1% ga kamayishi hamda tolaning tabiiy sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishiga, chigit shikastlanishini kamaytirish orqali toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori 0,2% ga kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqolalar, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarida ilmiy nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha analitik tahlil**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili keltirilgan. Hammaga ma'lumki, bugungi kunda paxta tozalash korxonalarida oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, bu barcha texnologik jarayonlardan o'tayotgan chigitli paxta xomashyosini tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishdan iborat. Paxta tozalash korxonalariga qo'yilgan talablarni hal etish paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berish, texnologik jarayonlarda chigitli paxta va tola mahsulotlarining sifatini hamda tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish va pnevmotransport qurilmalarini takomillashtirishdan iborat.

Paxta tozalash korxonalarida texnologik jarayonida chigitni shikastlanmasligi muhim ahamiyatga ega. Chunki chigit shikastlanish natijasida tolaning sifatiga ta'sir qiluvchi turli xil nuqsonlar hosil bo'ladi.


Paxtani qayta ishlash korxonalarida qo'llaniladigan pnevmotransport qurilmalaridagi texnologik jarayonlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari sohaning yetuk olimlari tomonidan o'rganilgan, biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi masalalar yetarli darajada o'z yechimini topmagan, jumladan paxta bo'lakchalari paxta tozalash mashinalarining ishchi sirtlariga urilish burchagini chigit shikastlanishiga ta'sir darajasini aniqlash, paxtani pnevmotransport tizimining ishchi yuzalari bilan o'zaro ta'sir mexanikasini nazariy va tajribaviy tadqiq qilish hamda quvur o'tkazgichning burchaklari shaklini tanlash va uning tashiladigan material sifat ta'sirini nazariy-tajribaviy tadqiq qilish.

Chig'anoqlarning ishchi yuzalarida elastik va polimer materiallarni qo'llash imkoniyatini aniqlash va tarmoqlarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish yetarli darajada o'rganilmagan.

Pnevmoquvur burilish qismlarida sodir bo‘ladigan shikastlanishni kamaytirish maqsadida po‘lat materialdan boshqa materialga (elastik va polimer) almashtirish imkoniyati yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiyaning “**Pnevmotransport quvurlari va uning elementlarida tola va chigit shikastlanishini nazariy yo‘llar bilan o‘rganish**” deb nomlangan ikkinchi bobida paxta tozalash korxonalarida tashish jarayonlarida pnevmoquvurlar yordamida havo orqali paxta xomashyosini tashish jarayonida paxta oqimining quvurlardagi harakat trayektoriyasiga muvofiq harakatlari o‘rganilib, differensial tenglamalar tuzilgan. Tuzilgan differensial tenglamalar yordamida paxta bo‘lakchalarining harakatlanish vaqti, quvurlarni diametri va egri qismlarining radiuslari aniqlangan.

Paxta tozalash korxonalarining hovlisiga joylashtirilgan paxta xomashyosini g‘aramdan ishlab chiqarish jarayoniga uzatishda dastlabki ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan quvurda paxta oqimining harakati nazariy tahlil qilindi. Dastavval paxtani  $XOY$  tekisligi bo‘yicha harakatini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



**1-rasm. Paxtani quvurdagi harakat sxemasi**  
1- quvur; 2-paxta

Bunda paxtaga ta‘sir qiluvchi aerodinamik va og‘irlik kuchlari hosil bo‘ladi. Harakat tenglamasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{cases} m \frac{d\vartheta_x}{dt} = -F_x + k \cdot \vartheta^2 \\ m \frac{d\vartheta_y}{dt} = -F_y + P \end{cases} \quad (1)$$

$m$  - paxta bo‘lakchasining massasi, gr;  
 $\vartheta_x, \vartheta_y$  - bo‘lakchanning koordinata o‘qlari bo‘yicha tezligi.

$$F_x = k_p \vartheta_x; \quad F_y = k_p \vartheta_y, \quad (2)$$

bu yerda:

$F_x, F_y$  - koordinata o‘qlari bo‘yicha paxta harakatiga qarshi aerodinamik kuchlar;

$P_m = mg$  - og‘irlik kuchi;


$g$  - erkin tushish tezlanishi;

$k_p$  - paxtaning aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti.

Quvur so‘ruvchi qismidagi paxtaning harakatini o‘rganish vaqtida, qulay bo‘lishi uchun, oldin koordinatani quvurning boshiga qo‘yamiz. Bo‘lakning harakati ikki cheksiz devor orasida sodir bo‘lyapti, deb faraz qilaylik:  $y=0$  va  $y=h$ .

Havo oqimi bilan uchrashish paytida paxta bo‘lagi absolyut tezlikka ega bo‘lsin, uni quvur o‘qiga nisbatan ma‘lum burchak ostida harakat qilyapti, deb faraz qilaylik. U holda harakat tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{cases} mx = -k(x - \vartheta) \\ my = ky - mg \end{cases} \quad (23)$$



2-rasm. Paxtaning quvurdagi harakat sxemasi

$\vartheta_x = \frac{dx}{dt}$  va  $\vartheta_y = \frac{dy}{dt}$  larni hisobga olib, (3) sistemani  $t=0$  shartida integrallaymiz.

Yechim quyidagicha bo‘ladi:

dastavval paxta oqimining OX o‘qi bo‘ylab harakatini integrallaymiz.

$$m \cdot \dot{x} + k \cdot x = k \cdot \vartheta \quad (4)$$

(4) ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan chiziqli tenglama. Uning umumiy yechimi  $m \cdot \dot{x} + k \cdot x = 0$  bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini  $x_1 = e^{\lambda \cdot t}$  va (4) tenglamaning xususiy yechimini  $x_2 = A \cdot t + B$  larning yig‘indisiga teng.

$$x = x_1 + x_2 \quad (5)$$

(5) tenglikni o‘rniga umumiy va xususiy yechimlarini qo‘yib va o‘zgarmas qiymatlarini boshlang‘ich va chegaraviy shartlardan foydalanib aniqlanadi. Tenglamani umumiy ko‘rinishini keltirib chiqaramiz.

$$x = -\frac{m}{k} \cdot (\vartheta_x \cdot \cos \alpha - \vartheta) \cdot (1 - e^{-\frac{k}{m} \cdot t}) \quad (6)$$

(6) tenglama quvurdagi paxta oqimining OX o‘qi bo‘ylab harakat tenglamasini ifodalaydi. Paxta oqimining quvurdagi OY o‘qi bo‘ylab harakatini ifodalaymiz.

$$m \dot{y} - ky = -mg \quad (7)$$

(7) ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan chiziqli tenglama. Uning umumiy yechimi  $m \dot{y} - ky = 0$  bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini  $y_1 = e^{\lambda \cdot t}$  va (7)

tenglamani xususiy yechimini  $y_2 = A \cdot t + B$  larning yig'indisiga teng. Tenglamani umumiy ko'rinishini keltirib chiqaramiz.

$$y = \frac{m}{k} \cdot (g_x \cdot \sin \alpha - \frac{m \cdot g}{k}) \cdot (1 - e^{\frac{k}{m}t}) + h \quad (8)$$


(8) tenglama quvurdagi paxta oqimining harakatini ifodalaydi.

Analitik hisoblashlardan kelib chiqib, zarbadan keyingi paxta bo'lagining tezligi ifodasini va koordinata o'qlari  $(x, y)$  bo'yicha joylashishini aniqlaymiz:

$$\begin{cases} g_x = g \cdot l \cdot \cos \alpha - \frac{k}{m}(t - t_1) + g \\ g_y = \left( g \cdot \sin \alpha - \frac{mg}{k} \right) l - \frac{k}{m}(t - t_1) + \frac{mg}{k} \end{cases} \quad (9)$$

(6), (8) va (9) tenglamalar quvur devoriga paxta bo'lakchani urilishidagi holatini aniqlaydi. Bunda bo'lakcha kritik nuqtaga yetadi va pastga tushadi. Agar, kritik nuqta vertikal koordinatasi kattaligi quvur diametridan katta bo'lsa, u holda bo'lak yuqori devorga uriladi. Uning keyingi holatini yetarlicha aniqlik bilan (6), (8) va (9) lar shakldagi tenglamalar bilan aniqlash mumkin. Faqat, zarbadan keyingi boshlang'ich tezlik yo'nalishini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritiladi.

(6) va (8) ifodalardan vaqt  $t$  ni chiqarib tashlash natijasida  $y = y(t)$  - paxta bo'lakchasini quvur diametri va uzunligi bo'yicha trayektoriyasining o'zgarish qonuniyati grafik ko'rinishida tasvirlangan (3-rasm).



**3-rasm. Quvurning turli xil diametrdagi  $d_1 = 30\text{cm}$ ;  $d_2 = 35\text{cm}$ ;  $d_3 = 40\text{cm}$ ;  $d_4 = 45\text{cm}$  qiymatlaridagi paxta bo'lakchalarining harakati vaqtga bog'liqlik grafigi**

(10) tenglamadagi  $c_1$  va  $c_2$  o'zgarimas qiymatlarini boshlang'ich koordinatasidan foydalanib topamiz.

$$t = 0 \quad x = 0, \quad \dot{x} = 0 \text{ bundan}$$

$$\begin{cases} 0 = c_1 + c_2 - \frac{kd}{p(m^2 p^2 + k^2)} \\ 0 = -\frac{k}{m} c_2 + \frac{k^2 p}{m^2 p^2 + k^2} = 0 \end{cases}$$


$$c_2 = \frac{k^2 pm}{k(m^2 p^2 + k^2)} = \frac{kpm}{m^2 p^2 + k^2}$$

$$c_1 = \frac{kd}{p(m^2 p^2 + k^2)} - \frac{kpm}{m^2 p^2 + k^2} = \frac{k(d - p^2 m)}{p(m^2 p^2 + k^2)}$$

Aniqlangan  $c_1$  va  $c_2$  qiymatlarini tenglamaga qo'yamiz.


$$x = \frac{k(d - p^2 m)}{p(m^2 p^2 + k^2)} + \frac{kpm}{m^2 p^2 + k^2} e^{-\frac{k}{m}t} + \frac{k^2}{m^2 p^2 + k^2} \sin pt - \frac{kd}{p(m^2 p^2 + k^2)} \cos pt \quad (11)$$

(11) tenglama paxta oqimining elastik elementga o'rnatilgan quvurdagi harakatini ifodalaydi. Bu tenglamani Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilamiz (4-rasm).




4-rasm. Paxta oqimining elastik elementli quvurdagi OX o'qi bo'ylab harakatining bikrli koeffitsiyentining turli xil

$\kappa_1 = 0,9$   $\kappa_2 = 0,7$   $\kappa_3 = 0,5$  qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi



5-rasm. Paxta oqimining elastik elementli quvurdagi OX o'qi bo'ylab harakatining paxta bo'lakchasing turli xil

$m_1 = 0,09 \text{ zp}$   $m_2 = 0,07 \text{ zp}$   $m_3 = 0,05 \text{ zp}$  qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi



6-rasm. Paxta oqimining elastik elementli quvurda yoy bo'ylab harakat sxemasi

1) Paxta oqimining elastik elementi o'rnatilgan quvurdagi harakati differensial tenglamasining AB va BC uchastkalarda ifodalaymiz. Paxta bo'lakchalariga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar  $\gamma = \frac{\pi}{2} - (\alpha - \varphi)$ ;  $v_\tau = R \cdot \dot{\varphi}$ ;  $\bar{F}_{uuxk} = f \cdot N$

$$m\ddot{L} = k\dot{L}^2 + d \sin pt \quad (12)$$

$$\dot{L}dL = \frac{d\dot{L}}{dt} \cdot dL = \dot{L}d\dot{L}$$

(12) differensial tenglamani integrallaymiz

$$\frac{\dot{L}d\dot{L}}{\frac{k}{m}\dot{L}^2 + \frac{d}{m}\sin pt} = dL$$

$$\frac{m}{2k} \ln\left(\frac{k}{m}\dot{L}^2 + \frac{d}{m}\sin pt\right) = L + C_1 \quad (13)$$

(13) tenglikdan  $C_1$  o'zgarmas qiymatni aniqlashda boshlang'ich shartdan foydalanamiz.

$$t=0 \quad L=0 \quad \dot{L}=0 \Rightarrow C_1 = \frac{m}{2k} \ln\left(\frac{d}{m}\sin pt\right)$$

aniqlangan o'zgarmas qiymatni (14) tenglamaga qo'yamiz.

$$\frac{m}{2k} \ln\left(\frac{k}{m}\dot{L}^2 + \frac{d}{m}\sin pt\right) - L + \frac{m}{2k} \ln\left(\frac{d}{m}\sin pt\right)$$

$$\dot{L}^2 = \frac{d}{k} \sin pt \left( e^{\frac{2k}{m}L} - 1 \right)$$

chegaraviy shartdan foydalanib  $L=L_1 \quad \dot{L} = v_B$

$$v_B = \sqrt{\frac{d}{k} \sin pt \left( e^{\frac{2k}{m}L_1} - 1 \right)} \quad (15)$$

2) BC yoy bo'ylab elastik element o'rnatilgan quvurdagi paxta oqimining harakat differensial tenglamasini ifodalaymiz

$$\begin{cases} m \frac{dv_\tau}{dt} = mg \cos\left(\frac{\pi}{2} - \gamma\right) - F_{uuxk} \\ m \frac{v^2}{R} = N + F_{sa} + mg \cos \gamma \end{cases} \quad (16)$$

(16) tenglamalardan paxta bo'lakchalarini quvur devoriga normal bosim kuchini aniqlaymiz.

$$\begin{cases} mR\ddot{\varphi} = mg \sin \gamma - f \cdot N \\ m \frac{v^2}{R} = N + k \cdot \Delta l + mg \cos \gamma \end{cases} \quad (17)$$


(17) tenglamadan urinma bo'ylab harakatlanayotgan paxta oqimining foydalanib urinma tezligini yechimini aniqlaymiz.

$$R\ddot{\varphi} = g \cos(\alpha - \varphi) - \frac{fN}{m} \cdot d\varphi$$

bundan  $\ddot{\varphi}d\varphi = \frac{d\dot{\varphi}}{dt} \cdot d\varphi = \dot{\varphi}d\dot{\varphi}$  deb xulosa qilish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Pnevmoquvurning eksperimental konstruksiyasini yaratish va uning optimal parametrlarini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobda pnevmotransport tizimida harakatlanayotgan paxta va uning mahsulotlari eng ko‘p shikastlanadigan uchastkalarini aniqlash uchun laboratoriya qurilmasi ishlab chiqarildi va unda paxtaning harakatiga qarab qiyalik burchaklari va burchak materialini o‘zgartirish orqali tajribalar o‘tkazildi. Ma’lumki, amaldagi pnevmotransport tizimi orqali paxta xomashyosini ishlab chiqarish jarayoniga uzatishda yuqorida keltirilgan chigitning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’siri sezilmoqda. Ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi tashqi kuchlarni, zarblanish miqdorini aniqlash, ya’ni tashuvchi havo ta’sirida pnevmotransport quvuri ichida harakatlanayotgan paxta va uning mahsulotlarini qanchalik darajada tashqi omillar ta’sirida shikastlanishini aniqlashning imkoni yo‘qligi sababli dissertatsiya ishi bo‘yicha yangi laboratoriya qurilmasi ishlab chiqildi (7-rasm).

Analog sifatida tadqiqotchi A.Burxanov tomonidan yaratilgan laboratoriya qurilmasi tanlab olindi. Ushbu taklif etilayotgan laboratoriya qurilmasi analogidan shunisi bilan farq qiladiki, massa urilish joyiga zarba kuchini aniqlovchi tenzo datchiklar o‘rnatilgan. A.Burxanov tomonidan taklif etilgan laboratoriya qurilmasida zarbani aniqlashda ma’lum bir oraliq masofaga foto datchiklar o‘rnatilgan bo‘lib, ular obyektning o‘tishi bilan vaqtga nisbatan obyektning qayd etib harakat tezligini aniqlash imkonini bergan.




**7-rasm. Taklif etilayotgan laboratoriya qurilmasi**

O‘lchash quyidagi tartibda amalga oshirildi: namuna uchun olingan paxta va uning mahsulotlari kirish qismiga tashlanadi hamda havo ventilyatori yordamida paxta va uning mahsulotlari nishon sirti bilan uchrashgunga qadar harakatlanadi. Ushbu holatda datchikka urilish natijasida havo bosimi o‘lchanadi. Tajriba jarayonida shikastlaganlik darajasini ularni sirt bilan urilishning grafik bog‘liqligi tuzildi.

Birinchi navbatda paxtani quvurdagi harakatida po‘lat quvur ichidagi havo oqimining tezlik miqdori o‘rganildi hamda tahlil qilindi. Havo oqimining tezligini o‘lchash uchun elektron anemometr qo‘llanildi.


Solid Works dasturi yordamida birinchi bo‘lib havo tezligi oqimini o‘rgandik (8-rasm)



**8-rasm. Solid Works dasturi yordamida havo tezligi oqimi sxemasi**

Havo oqimi parametrlarini o‘lchash uchun turli xil qurilmalar mavjud. Anemometrlarning zamonaviy turlari kosachali, parrakli va doimiy tok (sim) asboblarga, shuningdek, bosim plitasi, bosim trubkasi, Doppler akustik radar, ovozli datchiklar va boshqa qurilmalaridan foydalanadigan qurilmalarga bo‘linishi mumkin. Shuningdek, o‘rnatilgan anemometr yordamida havo tezligi va yo‘nalishini o‘lchash uchun murakkabroq asboblari ham mavjud.

Anemometr yordamida dissertatsiya ishi bo‘yicha ishlab chiqilgan laboratoriya qurilmasidagi havoning tezligi quyidagi metodika asosida aniqlandi (9-rasm).



**9-rasm. To‘rtburchak shaklga ega bo‘lgan quvurda havo tezligini o‘lchash metodikasining sxemasi**

Bunda tajriba qurilmasining to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi quvurida havo tezligini aniqlash uchun quvurni 9 ta chorakka ajratib olgan holda quvurning III, VI, VII, VIII va IX qismlarida aniqlangan havo tezliklarini yig‘indisining o‘rta arifmetik qiymatlari olindi.

Solishtirish uchun tajriba davomida po‘lat sirti hamda polietilen materialdan tayyorlangan sirtga urilish tezligi o‘rganildi. Paxta tozalash korxonalarida ishlatilib kelayotgan po‘lat materialdan tayyorlangan quvurlarning ichki yuzasi g‘adirbudurligi tufayli bosim katta miqdorda sarflanadi. Polietilen quvurlarning ichki yuzasi silliq bo‘lganligi hamda g‘adirbudurligi yo‘qligi sababli paxtani quvur ichida so‘rish bosimi kam miqdorda sarflanadi.

### Quvurda havo tezligini o'lash

№	Kuzatish olib borilgan joyning nomlanishi	Havo oqimining tezligi [m/s]	Harorat [F], [°C]
1	Qurilma tashqarisida tabiiy havoda	0.47	96/28
2	Quvurning qayrilish mavjud qismida	27	99/28.5
3	Quvurning qayrilish mavjud qismida	18	96/28
4	Quvurning qayrilish mavjud qismida	10	95/27.5
5	Quvurning qayrilish mavjud qismida	24	93/26.5
6	Quvurning qayrilish mavjud qismida	24	91/25.5
X	Qurilma ichida olingan natijalarning o'rtacha qiymati	20.6	94.8/27.2

Tajribada paxta va uning mahsulotlarini 26 m/s tezlikda to'g'ri burchak ostida po'lat sirtlariga urilishida kuchi tola va chigitlarga tushayotgan shikastlanish yuklanishdan ortib ketishini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, pnevmotashish vaqtida paxta bo'laklar ko'rinishida harakatlanadi va sirtga urilishida bo'lakning tashqi sirtida joylashgan chigitlar sirtga uriladi xolos. Amaliyotning ko'rsatishicha, pnevmotashish sharoitida shikastlangan chigitlarning ulushi birmuncha ko'p bo'lib, tola sifatining pasyishiga sabab bo'ladi.

Natijalarni taqqoslash uchun tolalarning himoyalangan po'lat sirtlarga urilishidagi shikastlanganligini bog'liqligi ham keltirilgan. Paxta xomashyosi chigitining turli materiallarga urilish parametrlari 2-jadvalda keltirilgan.

Tajribada katta hajmdagi shikastlanganlik po'lat sirtga urilishda sodir bo'lishi aniqlandi. Polietilen qoplamalar ham paxta va uning mahsulotlarini shikastlanishini bir muncha kamayishini ta'minlamaydi.

### Paxta xomashyosi chigitining turli materiallarga urilish parametrlari

Sirt materiali	Parametrlar	Urilish tezligi, m·s <sup>-1</sup>				
		10	15	20	30	40
Po'lat	$\alpha_1 \cdot 10^{-3}, m$	0,217	0,302	0,379	0,522	0,6609
	$P, H$	70,18	114,17	161,22	262,24	370,36
	$t \cdot 10^{-3}, c$	0,064	0,058	0,056	0,054	0,049
Erukamid moddasi qo'shilgan polietilen	$\alpha_1 \cdot 10^{-3}, m$	1,146	1,587	1,998	2,763	3,478
	$P, H$	13,28	21,64	30,55	49,62	70,18
	$t \cdot 10^{-3}, c$	0,338	0,310	0,293	0,272	0,256

Yuqorida keltirilganlarga asosan quyidagicha xulosa qilish mumkin, quvur o'tkazgich tarmoqlarining polietilen materiallarni qo'llanilishi paxta xomashyosini pnevmotashishda chigitlarni shikastlanganlik darajasini pasayishiga sabab bo'ladi. Polietilendan tayyorlangan quvurga chigitning urilishida urilish kuchi barcha holatlarda ham kichikligi aniqlandi.

Zarba kuchini aniqlash uchun material orqasiga datchik o'rnatilgan (10-rasm).



**10-rasm. Zarba kuchini aniqlovchi datchik**


Ushbu natijalardan foydalanib havo tezligi va haroratga bog‘liq ravishda mahsulot hajmi va havo oqimiga ko‘rsatadigan qarshilik kuchini hisoblashlardan impulsni va uning o‘zgarishini ta’sir kuchini hisoblash mumkin.

Ossillograf ish jarayoniga tayyorlandi. Buning uchun datchikning signal uzatuvchi shinasini ossillografning qabul qiluvchi birinchi kanaliga ulandi.




**11-rasm. Kuzatish-tekshirish ishlariga tayyor holatdagi ossillograf monitori**

2022-09-26 11:21:39 CH1 Trigd 11.905 Hz 84.000 mS 250.000 uS 10.200 V



**12-rasm. Po‘lat materialdan tayyorlangan buralish qismiga urilish zarbasini aniqlash jarayonining ma’lumotlar grafigi**

Chizma yuqorisida tekshiruv sanasi va vaqti, ma’lumot olingan kanalning tartib raqami, olinuvchi ma’lumotlarning chastotasi va davri, signali qabul qilish vaqt oralig‘i hamda kuchlanishi ko‘rsatiladi.



**13-rasm. Polietilen materialdan tayyorlangan buralish qismiga urilish jarayonining ma'lumotlar grafigi**

Yuqoridagi 3 ta grafik (11,12,13-rasmlar) metall quvurda bajarilganligi bois ularda yuqori chastota va o'rta qiymatli amplitudaga ega shovqin signallari mavjud. Tahlil uchun signallarning maksimal qiymatga ega bo'lganlarini tanlab ajratib olinadi va undagi qiymatni birlik deformatsiyaga to'g'ri keluvchi qiymatini hisoblab ta'siri aniqlanadi.

Shuningdek, qurilmaning tebranishlarini va havo oqim tezligini hamda yo'lak devorlarini qattqlik darajasini yo'lakda harakatlangan mahsulot sifatiga ta'siri sezilarli bo'ladi. Buni o'rganish uchun anemometr, vibrometr, tenzodatchik va turli aniqlik sinfiga mavjud ossillograflardan foydalanildi.


Pnevмоташish qurilmasida paxta xomashyosini tashish tezligini oshirish bilan paxta va uning mahsulotlarini shikastlanishi ham ortadi, bu esa paxta tolasining sifatini pasayishiga, chigitlarni ekishga tayyorlashda esa uning unuvchanigini pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun pnevмотransport chig'anoqlarini geometrik shaklini tashilayotgan paxta chigitlarini shikastlanish darajasiga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ushbu tadqiqot ishida pnevмотransport tizimida paxtani tashishda burilish burchaklarida shikastlanish ko'p sodir bo'lganligi sababli, biz burilish burchaklarini geometrik shakldagi pnevмоquvur chig'anoqlari taklif qilinib (radial, ellips va parabola) ulardagi paxtaning harakati nazariy yo'l bilan o'rganildi. Taklif qilingan turli xil geometrik shaklga ega bo'lgan chig'anoqlar ichidan havo bosimini yo'qotmaydigan va paxtaga ortiqcha zarba kuchi ta'sir etmaydigan geometrik shakli tanlab olindi (14-rasm).

Endi pnevмоташish qurilmasida chigit va tola shikastlanishini kamaytiradigan chig'anoqni yaratish uchun qo'llaniladigan material tanlash amalga oshirildi.

Ma'lumki, hozirgi paytda polietilen mahsulotidan yasalgan quvurlar ko'p ishlatilmoqda. Bu quvurlar zanglamasligi (50 yilga chidaydi), bo'yab turishni talab qilmasligi, mahsulotni harakatiga kam to'sqinligi (ichki yuzasi silliq bo'lgani tufayli) va boshqa xususiyatlari bilan po'lat quvurlardan afzal turadi.

